

**ENG YAXSHI TAKLIFNI TANLASH BO'YICHA
TEXNIK QISM**

**Innovatsion g'oyalarni qo'llab quvvatlash "Biznes-inkubator"
dasturiga qo'yilgan amaliy-dars mashg'ulotlarini o'tishga jalb
etiladigan Spikerlar bo'yicha**

TEXNIK TOPSHIRIQ

UMUMIY MA'LUMOT

**1.1 BUYURTMANING TO'LIQ NOMI VA SHARTLI
BELGILANISHI**

To'liq nomi: Innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash "biznes inkubator" dasturi doirasida trening o'tish uchun spikerlar;

Shartli belgilanishi: Spikerlar

1.2 BUYURTMACHI VA BAJARUVCHI

Spikerlarni jalb qilish bo'yicha buyurtmachi - Yashnobod innovatsion texnoparki DUK Direksiyasi (Bundan buyon matnda Buyurtmachi deb yuritiladi.)

Manzil: Toshkent shahar, yashnobod tumani, Majnuntol ko'chasi, 5.

Tel: +998 71 296 49 67

Spikerlarni jalb etish bo'yicha texnik topshiriqni tayyorlovchi - "Biznes-inkubator" faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi.

Bajaruvchi - Buyurtmachi bilan o'rnatilgan tartibda imzolangan shartnomaga muvofiq qo'yilgan amaliy-dars mashg'ulotlarini o'tib beruvchi.

1.3 TRENING XIZMATLARINI KO'RSATISH UCHUN ASOS

Innovatsion g'oyalarni qo'llab quvvatlash "Biznes-inkubator" dasturiga qo'yilgan amaliy-dars mashg'ulotlarini o'taydigan Spikerlarni jalb etish uchun quyidagilar asos qilib olindi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 1-2 iyun kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar va kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan 30-sonli yig'ilish bayonining 147-bandi ijrosi

1.4 MOLIYALASHTIRISH MANBALARI

"Yashnobod" Innovatsion texnoparki DUK maqsadli mablag'lari.

**1.5 BAJARILGAN ISHLAR NATIJALARINI RO'YXATGA OLISH
VA RASMIYLASHTIRISH TARTIBI**

Bajarilgan ishlar natijalari o'tilgan trening darslari orqali baholanadi

2. QISQARTMALAR, ATAMALAR VA ULARNING TA'RIFLARI

Biznes-inkubator – kichik va o'rta biznesni yuritish malakalarini oshirish, tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish bilan shug'ullanadigan ixtisoslashgan o'quv amaliy dasturi;

MVP – hayotga layoqatli eng kichik mahsulot;

KPI – o'zlashtirishning asosiy ko'rsatkichlari;

Spiker – o'z tajribalari bilan bo'lishishga tayyor, ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan mutaxassis;

3. TRENINGLARNI O'TKAZISH MAQSADI VA VAZIFALARI

3.1 TRENING O'TKAZISH MAQSADI

Innovatsion g'oyalarni qo'llab quvvatlash "Biznes-inkubator" o'quv-amaliy dasturida qatnashuvchi loyiha egalariga darslarni o'tib beruvchi tajribali Spikerlarni ro'yxatini shakllantirish va ularni dasturda qo'yilgan mavzular bo'yicha qo'yilgan darslarni o'tib berishini shakllantirish.

4. TRENING O'TKAZISH BO'YICHA TALABLAR

Mashg'ulotlar formati	Oflayn/onlayn
Oflayn mashg'ulotlar o'tkazilish joyi	Surxondaryo viloyati Oltinsoy innovatsion tumani
Spikerlarga qo'yiladigan talablar	<ol style="list-style-type: none">1. Oliy ma'lumotli bo'lishi;2. Xalqaro kompaniyalarda boshqaruv (yoki soha bo'yicha bo'lim boshlig'i) lavozimida ishlagan bo'lishi;3. Umumiy ish tajribasi kamida 8 yil bo'lishi4. Dars berish bo'yicha tajribaga ega bo'lishi;5. Muvaffaqiyatli shaxsiy biznesga ega bo'lishi yoki katta ishlab chiqarish/ xizmat ko'rsatish korxonasida boshqaruv lavozimida faoliyat olib borayotgan bo'lishi kerak;6. O'zbek, Rus, va Ingliz tillarida erkin so'zlasha olishi kerak;7. Biriktirilgan mavzu bo'yicha biznes hamjamiyat tomonidan tan olingan mutaxassis bo'lishi kerak
Trening mavzulari ro'yhati	<ol style="list-style-type: none">1. Marketing tadqiqotlari;2. Moliyaviy boshqaruv;3. Lean startap;4. Elektron platformalar;5. Marketing metrika;6. Inson resurslarini boshqarish;7. Gepoteza tahlili;8. Product development;9. Biznes model shablonlari;10. Soliqchilik;11. MVP yaratish;12. Nutq mahorati;13. Kichik biznes Iqtisodiyoti;14. Huquqiy savodxonlik;15. Loyiha tizerlarini tayyorlash;16. Ijtimoiy tarmoq marketing;17. Tizimli boshqaruv va kengayish strategiyalari

5. TRENING O'TKAZISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILADIGAN ISHLAR RO'YXATI

№	Ish nomi	Muddat	Mas'ul (Buyurtmachi/Bajaruvchi)
1	Dasrurda keltirilgan mavzular bilan tanishib chiqish va material tayyorlash	Dastur tasdiqlangan kundan boshlab, trening o'tiladigan kunga qadar	Bajaruvchi
2	Dasturda keltirilgan mavzular bo'yicha tesiz (slaydlar), o'quv materiallarini taqdim etish	Trening boshlanishidan kamida bir soat oldin	Bajaruvchi
3	Trening o'tkazish uchun barcha zaruriy sharoitni taqdim etish	Dastur davomida	Buyurtmachi
4	Dasturda qatnashuvchi loyihalarga moslab keltirilgan mavzularni sodda, tushunarli tarzda amaliy-dars mashg'ulotini o'tkazish	Dastur davomida	Bajaruvchi

6. NAZORAT QILISH VA QABUL QILISH SHARTLARI

Treningni o'tkazgan spikerlardan o'quv-amaliy mashg'ulot darslarini Buyurtmachi tomonidan texnik topshiriqda belgilangan muddatlar va talablarga muvofiq amalga oshiriladi.

Bajaruvchi ishni to'liq yakunlagandan so'ng Buyurtmachiga aktlar va dalolatnoma asosida ishni topshiradi.

Treningni o'tkazish jarayonida kelib chiqqan o'zgarishlar va qulayliklar inobatga olinadi.

Treningni texnik topshiriqqa muvofiq o'tkazish jarayonida texnik topshiriqdan tashqari, Bajaruvchining takliflari Buyurtmachi tomonga ma'qul kelgan holatda ma'qullanadi.

Bajaruvchi Buyurtmachi bilan imzolagan shartnoma shartlarini bajarish jarayonida olingan maxfiy ma'lumotlarni boshqa shaxslarga tarqatmaslik yoki ulardan turli maqsadlarda foydalanmaslik majburiyatini oladi.

Innovatsion g'oyalarni qo'llab quvvatlash "Biznes-inkubator" dasturiga qo'yilgan amaliy-dars mashg'ulotlarini o'tishga jalb etiladigan Spikerlar bo'yicha texnik topshiriqni tasdiqlovchilar

Direktor

Direktor o'rinbosari

